

S.SAYYID SHE'RIYATIDA PEYZAJ

Karimova Dilnoza

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri Sirojiddin Sayyid ijodida peyzaj lirikasining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir tabiat manzaralarini tasvirlash orqali inson ruhiy olamini, ichki kechinmalarini va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini yoritadi. Uning she'rlarida tabiat shunchaki fon yoki manzara emas, balki lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi asosiy poetik vositaga aylanadi. Shoir bahor, nasim, oy, daraxt, bog' kabi timsollar orqali dard, sog'inch, muhabbat va armon kabi kechinmalarni obrazli tarzda ifoda etadi. Tadqiqotda S.Sayyid she'riyatidagi peyzaj obrazlarining estetik funksiyasi, ularning inson ruhiyatiga uyg'unligi hamda badiiy tafakkurdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sirojiddin Sayyid, peyzaj lirika, tabiat manzarasi, ruhiy kechinma, lirik qahramon, badiiy tasvir

Peyzaj lirikasida tabiat manzaralari, ohanglari, ringlari o'zining mazmundorligi bilan ham ajralib turadi. Tabiat manzaralari va hodisalari orqali insonni, jamiyatni badiiy-estetik talqin etish zamonaviy she'riyatimizning asosiy badiiy usullaridan biriga aylandi. Peyzaj lirikasida tabiat va inson o'rtasidagi nafaqat zohiriy munosabatlar, balki ruhiyat olamining eng nozik kechinmalari ham qalamga olinadi. Shoir jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni mohirona tasvirlashda tabiatdan ilhomlanish bilan birga, o'z ma'naviy dunyosini boyitadi ham. Tabiat manzarasi tasviri mumtoz adabiyotimizda ham keng qo'llanilgan. Buyuk shoirlarimiz tabiatdagi uyg'unlik tasviri vositasida qalb kechinmalarini qalamga olganda go'zal badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llagan. Tabiat hodisalarini qahramon timsolida ta'riflash Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi:

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,

So'ngra degil ko'ngul otlig notavonimdin xabar.

Alisher Navoiy g'azallarida shamol obraziga alohida poetik ma'no yuklangan. Shoir shamolni turli nomlar - sabo, yel, nasim, dovul kabi shakllarda tilga oladi va har birini o'ziga xos ma'no doirasida ishlatadi. Bu timsollar orqali shamol ko'p hollarda lirik qahramonning dardkashi, ishq elchisi sifatida tasvirlanadi.

Shamol, ayniqsa sabo, oshiqning yurakdagi kechinmalarini yetkazuvchi, yoridan xabar olib keluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Lirik qahramon saboga murojaat qilib, undan seviklisi haqida xabar olib kelishni so'raydi. Ba'zida bu iltijolar nido shaklida ifodalanadi, bu esa oshiqning iztirobini yanada kuchaytiradi.

G'azallarda shoirning asosiy e'tibori o'zining holatida emas, balki yorining ahvolidan bo'ladi. U avvalo ma'shuqasidan xabar olishni istaydi, so'ngra zarurat bo'lsa, o'zining holi haqida gapirishni lozim deb biladi. Bu esa oshiq sadoqatining, fidoiyligining yorqin

ifodasidir. Shamol esa bu yerdagi vositachi, ishonchli hamroh sifatida poetik vazifa bajaradi.

Jahon adabiyotida peyzaj lirikasi tadqiqoti masalasi asosiy mavzulardan biri sanaladi. Tadqiqotchi olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, rus adabiyotshunosligida M.Epshteyn, Y Soxpyakov, tadqiqotlari shunday ishlar sirasidan. O'zbek adabiyotida ham tabiat lirikasini ilmiy o'rganish masalasida adabiyotshunos olimlarimiz samarali izlanishlar olib borgan. Masalan, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, I. Haqqul va boshqalarning ilmiy izlanishlarini faxr bilan tilga olish lozim. Zamonaviy adabiyotimizda, jumladan, she'riyatimizda tabiat lirikasi har jihatdan rivojlangan, o'zining badiiy-estetik takomiliga erishgan. Shoirларimiz tabiat unsurlarini tasvirlash orqali hayotiy voqea-hodisalarning tub mohiyatini, lirik qahramon qalb kechinmalarini ta'sirchan ochib berishga erishmoqda. Jumladan, bugungi o'zbek she'riyatining taniqli vakillaridan biri shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida ham peyzaj lirikasining go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin Shoir tabiatning chin oshig'i, uning hissiyotga boy qalbi tabiat manzaralari tasviri jarayonida yanada go'zal aks etadi. U tabiatning eng nozik va go'zal manzaralariga murojaat qiladi, ichki dardlarini ifodalashda ularni o'z o'rnida mohirona qo'llaydi.

Sirojiddin Sayyid o'z she'rlarida qalbi tubdagi tug'yonlarni, dardlarni va ichki kechinmalarni bahorga murojaat tarzida bayon qiladi. Bahor uning dardlarini mayus va sokin tinglaydi. Shoir "Ilinj" nomli she'rida nasim obrazini orqali tuyg'ularini izhor qiladi. Shoir bu istaklarni she'rida chiroyli misralarda bayon etadi:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,
Aytib o'tsam deymen ko'hna dardlaringdan.?

Shoirni tabiatga murojaatidan ayon bo'layotirki, u hech kimga aytolmagan dardlarini bahor bilan bo'lishmoqchi. She'rda u tabiatni o'ziga do'st bilgan va sir doshi sifatida tasvirlagan. Do'stiga dardini qanday aytib maslahat olsa, tabiatga ham aynan shunday munosabatda bo'lgan. Ushbu she'rning keyingi misralarida shoir fikrlarini yanada aniqroq va yorqinroq ifodalagan. Quyidagi satrlar fikrimizning yorqin dalilidir:

Almashdilar seni nomu rutbalarga,
Munglug' bo'lib qolding botib shubhalarga.
Hilollaring qaytar yana qubbalarga,

Sirojiddin Sayyid she'rlarida tabiatning nozik tasvirlari rangin bo'yoqlar bilan ifodalangan. Shoirning bu tasvirlari she'riyatga oshufta qalblarni sohir his-tuyg'ular bilan boyitadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida ma'nolar nozikligi, so'zlarning o'z o'rnida qo'llanishi hamda chiroyli tasvirlarni ko'ramiz. Shoir chiroyli tasvirlar yordamida she'riyat ixlosmandlari ko'ngliga yo'l ochishga harakat qiladi, ularning istak-xohishlariga hamohang tarzda dardlarni tasvirlaydi.

“Alamli dunyo” she’ridagi joy olgan quyidagi satrlari o’quvchini o’ylashga undaydi. Unda tabiat tasviri orqali ayriliq azoblari, hijron dardlari qalamga olingan. Oy tasviri yordamida ko’ngil iztiroblari aytilsa. Hajr daraxti yordamida ayriliq mevasi tasvirlanadi. Muhabbatning iztirobli dardlarini tabiat tasviri vositasida yanada ehtirosli talqin etadi:

Qo’llarim shoxlarday zor qolgan kunlar,
Dil ketib, valekin or qolgan kunlar
Sen ketding, muzladi o’ng ila so’lim,
Alamli dunyoda alamli gulim.
Suvlarda sadosiz sindilar oylar,
Afsunday jim, sokin okdilar soylar.
Tugunlarin ochib yillar va oylar
O’tdilar, sen hamon tili tugunim,
Alamli dunyoda alamli gulim.

She’r “Alamli dunyoda, alamli gulim” deb nomlangan bo’lishiga monand, iztirob, sog’inchi va armon bilan yo’g’rilgan. Bu asar yurakda yongan muhabbat olovining kulidan qolgan his-tuyg’ular ifodasidir. Shoir o’z dardini bevosita aytmaydi uni tabiat manzaralari, sokin tasvirlar va ichki ohang orqali anglatadi. She’rni o’qir ekanmiz, qalbdagi og’riqni ko’zga ko’rinmas, ammo yurakka botuvchi tarzda his qilamiz.

Tabiat obrazlari bu yerda shunchaki fon emas balki lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi badiiy vositadir. Bahorning sovuq tasviri, soylarning jim oqishi, bog’larning kulga aylanishi, ko’ksimdagi “go’zal o’lim” - bularning barchasi shunchaki tasvir emas. Bular shoir yuragida kechayotgan fojining tashqi ko’rinishidir. Ichki dunyo bilan tashqi tabiat birlashib ketgan: atrofda nima bo’layotgan bo’lsa, barchasi ichki alamning aksidir.

Sendan so’ng ko’nglimni beomon yanchib,
Ne suluvlar o’tdi o’zicha ranjib,
Baland poshnalarin ko’ksimga sanchib,
Bevaqt so’ldirdilar sehru jununim,
Alamli dunyoda alamli gulim.
Mung’ayib qoldilar umid bog’lari,
Mangu zirqiraydi bag’ir dog’lari,
Bog’larning dudlari hamda zog’lari
Mening fig’onimdir ham mening kulim,
Alamli dunyoda alamli gulim.

She’rda sevgi - hayot, uning yo’qolishi esa - o’lim timsolida tasvirlanadi. Ammo bu o’lim shunchaki jismoniy emas. Bu - ichki so’nish, ruhiy og’riq, orzularning kulga aylanishi. Shoirning eng katta yutug’i shundaki, u oddiy so’zlar bilan juda murakkab tuyg’ularni ifoda eta olgan.

Xulosa o’rtaida aytish lozimki, Sirojiddin Sayyid tabiatni kuylovchi, uning hodisalari bilan uyg’un yashovchi ijodkordir. Tabiatning har bir unsuri, manzarasi, xoh kichik bo’lsin, xoh ulkan bo’lsin, ijodkor nigohidan chetda qolmaydi. Shoir sergaklik, ziyraklik

va donolik bilan tabiatni kuzatib, o'z she'rlarida uni jonli tarzda, insonlar hayoti bilan hamohanglikda tasvirlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Пайзуллаева Р. Сирожиддин Саййид шеърлятида Навоийна оҳанглар // “АлишерНавоий ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги IV анъанавийхалқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Навоий, 2021 йил 23-25 ноябрь;
- 2.Oripova G, Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // Inertational scientific journal of Biruni. Oct. 2022;
- 3.Abdulhamidova H., Saminjonova M. Mustaqillik davri she'riyatida milliy detallarning ifodalanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. November;
- 4.Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og'zaki ijodi an'analari // “O'zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Navoiy, 2023;
5. Jabborov N. Men she'r aytsam, bu hayot yana sha'n hayot bo'lgay... // O'z AS, 2023. № 42; Жабборов Н. Шоирнинг буғдой сўзи // Халқ сўзи. 2024 йил. №143;
- 6.Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Navoiy, 2024.